

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI



«MUQOBIL ENERGIYA MANBALARI»  
kafedrasi  
“Geotermal manbalardan foydalanish”  
fanidan  
5312400 - muqobil energiya manbalari (turlari buyicha) yo'nalishi  
talabalariga ma'ruza mashg'ulotlari uchun tayyorlangan

## USLUBIY KO'RSATMA

Qarshi – 2022 yil

**Tuzuvchilar:** Raxmatov O.I. - Muqobil energiya manbalari” kafedrasi assistenti

**Taqrizchilar:** **Vardiyashvili A.A.** - QDU “Kasbiy talim” kafedrasi mudiri, t.f.n. dots.,  
**Qodirov I.N.** – QMII “Muqobil energiya manbalari” kafedrasi professori.

Uslubiy ko’rsatmadan 5312400 - muqobil energiya manbalari (turlari buyicha) bakalavr ta’lim yo‘nalishlari talabalari foydalanishlari mumkin bo’lib, unda “Geotermal manbalardan foydalanish” fanining eng muhim mavzulariga oid ma’ruza mashg’ulotlarini bajarish uchun namunalar keltirilgan.

Ushbu uslubiy ko’rsatma «Muqobil energiya manbalari» kafedrasi (Bayon №1 24.08 2022 yil), Energetika fakulteti uslubiy kengashida (Bayon №1 26.08 2022 yil) hamda Qarshi muhandislik qurashchi instituti Uslubiy kengashi (Bayon №1 29.08 2022 yil) qaroriga asosan o‘quv jarayonida qo’llanishga tavsiya etilgan.

## MUNDARIJA

<b>I BOB</b>	<b>GEOTERMALENERGIYA MANBALARI.....</b>	
1.1	Geotermal energiya manbalari faniga kirish.....	
1.2	Geotermal energiya manbalarining rivojlanish bosqichlari.....	
1.3	Geotermal energiya manbalaridan foydalanishning jahon va O‘zbekiston tajribasi tahlili.....	
1.4	Geotermal energiyaning avzalliklari va kamchiliklari.....	
<b>II BOB</b>	<b>GEOTERMAL MANBALARDAN FOYDALANISH ASOSLARI.....</b>	
2.1	Geotermal energiya manbalari asosidagi energetik qurilmalar.....	
2.2	Geotermal elektr stansiyalari va quvvatini baholash.....	
2.3	Rossiya va MDH davlatlaridagi geotermal elektr stansiyalar.....	
2.4	Geotermal energiyadan foydalanib uylarni isitish.	
<b>III BOB</b>	<b>GEOTERMAL ENERGIYaNING MAVJUD KO‘RINISHLARI VA OLISH USULLARI.....</b>	
3.1	Petrotermal energiya konlari.....	
3.2	Ploosher usulida geotermal energiyani olish.....	
3.3	Geotermal suvlarni chuchuklashtirish.....	
3.4	Yopiq siklli elektr generator qurilmasi.....	
<b>IV BOB</b>	<b>GEOTERMAL ENERGIYa MANBALARIDAN O‘ZBEKISTON ShAROITIDA FOYDALANISH....</b>	
4.1	Geotermal energiya manbalarining energetik potensialini baholash metodikasi.....	
4.2	Geotermal energiya manbalarini avtonom isitish va issiq suv ta’moti tizimida qo‘llanilishi (Qashqadaryo viloyati misolida).....	

**KIRISH**  
**1 BOB. GEOTERMAL ENERGIYa MANBALARI**  
**Geotermal energiya manbalari faniga kirish**

Yer markazida harorat 4000-5000K oralig‘ida bo‘ladi va bu Yer qa’ridagi jinslarni osonlik bilan eritish imkoniyatini beradi, shuningdek Yer yuzasiga yaqin joylashgan magma o‘choqlarida 1200-1500 K ni tashkil etadi. Chunki Yer tubiga kirib borgan sari har 1000 metrda harorat 30-35°S ga ko‘tariladi. Vulqon mavjud

hududlarda erigan jinslar Yer yuzining ustki qatlamiga juda yaqin joylashgan bo‘ladi. Yer hajmi taxminan 1085 mlrd. km<sup>3</sup> bo‘lib Yer po‘stlog‘ining yupqa

qatlamini hisobga olmaganda juda yuqori haroratga ega. Sayyoraning faol vulqonli faoliyatga ega ayrim hududlarida harorat gradienti 200°S/km, shuningdek yuqori haroratli qatlamlari Yer yuzasiga yaqin joylashgan. Ba’zi hududlarida esa tabiatning o‘zi geotermal energiyani Yer yuzasiga chiqarib beradi, bu bug‘, qizigan suv yoki qaynayotgan bug‘ ko‘rinishiga ega holatda geyzerlar sifatida namoyon bo‘ladi.

“Geotermal” so‘zi grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, “geo” – Yer va “therme” – issiqlik energiyasi, ya’ni geotermal energiya – Yerosti issiqlik energiyasidir.

Ushbu issiqliknii bug‘ yoki issiq suv sifatida tiklab binolarni isitishda va elektr energiya ishlab chiqarishda foydalansa bo‘ladi. Ayrim mamlakatlarda uzoq yillar mobaynida geotermal energiya taom tayyorlashda va binolarni isitishda foydalanab kelinmoqda.

Geotermal energiya – topib ishlatish - axtarib topish, unga ishlov berib ma’lum energiya holatiga olib kelish hamda iste’molchiga sifatli energiya yetkazib berish jarayonidan iboratdir. Issiqlik energiyasi olib yuruvchi geotermal energiyani axtarib topishni quyidagi klassifikatsiyasini keltirish mumkin. Yer sathidan 50-100 m va undan ortiq chuqurlikda joylashadigan geotermal suvlari favvorali yoki aylanuvchi bo‘lishi mumkin. Favvorali texnologiya hozirgi kunda ko‘p ishlatiladigan turlardan bo‘lib, undagi bosim atmosfera bosimidan bir necha barobar katta bo‘lishi mumkin. O‘z bosimi ostida yoki nasoslar bilan ko‘tarib

berilgan favvorali suvlari ishlatib bo‘lingandan so‘ng tashlab yuborilishi kerak. Tarkibida har xil tuzlar va boshqa atrof-muhitga zarar keltiruvchi moddalar borligi tufayli ulardan foydalanish uncha ham maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun bu usul uncha qo‘llanilmaydi. Energiyaning ushbu turi kelajakda katta rol o‘ynashi mumkin. Geotermal energiyadan foydalanuvchi qurilmalar odatda yagona elektr tizimi yoki markazlashtirilgan issiqlik ta’moti tizimi uchun ishlaydigan katta qurilmalarga mos keladi.


Yer osti issiq suvlari aylanib yuradigan tabiiy yer osti rezervuarlarni qazish uzatma turbinalar uchun yuqori bosimli bug‘ manbalaridan foydalanishni ta’minlaydi. Katta energiyaga ega yerosti suvlardan ularni yerosti suv

omborlariga qaytarishdan oldin markazlashtirilgan issiqlik ta'minoti tizimi uchun ham foydalanilishi mumkin. Geotermal energiya manbalarining ikki turi – yuqori haroratli va o'rtalagi haroratli manbalari mavjud. Yuqori haroratli manbalardan odatda elektr energiya ishlab chiqarish uchun, past haroratli manbalardan esa markazlashtirilgan issiqlik ta'minoti va qishloq xo'jaligida foydalaniladi. Manba harorati issiqlik tashuvchi haroratini oshirish maqsadida issiqlik nasoslaridan foydalanmasdan turib, markazlashtirilgan issiqlik ta'minotini to'g'ridan-to'g'ri ta'minlash uchun 90 °S dan kichik bo'lmasligi lozim. Geotermal manbalardan foydalanish orqali ishlab chiqariladigan elektr energiyasining narxi manba xususiyati va qurilma hajmiga qarab, ma'lum miqdorda o'zgaradi. Energiya birligining tannarxi 1 kWt soat uchun taxminan 0,25-0,1 AQSh dollari atrofida bo'ladi. Bug'ning eng kam narxi esa bir tonna uchun 3,50 AQSh dollarini tashkil etadi.

Narxga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillar resurs harorati, quduq unumdoorligi, ob'ekt infratuzilmasi va quvvati hisoblanadi. Odatda elektr energiyasini geotermal yo'l bilan ishlab chiqarish nisbatan ko'p mablag' sarflashni talab qiladi. Bu mablag'lar qidirish, qazish va qurilmalarni barpo etish uchun zarur. Shunday bo'lsa-da, foydalanish sarf-xarajatlari unchalik ko'p emas.

## 1.2. Geotermal energiya manbalarining rivojlanish bosqichlari

Insoniyatning geotermal energiya manbalaridan isitish maksadlarida foydalanishi uzok tarixga borib taqaladi. Shunga karamasdan, fakat 70 - chi yillarda bu keng ko'lamda Islandiya, Vengriya va sobik SSSR da boshlangan. Tabiiy bug'dan birinchi bo'lib sanoat miqyosida katta o'lchamda foydalanish 1904 yilda Italiyaning Larderello degan joyida (geotermal elektr stansiyasi) yerosti bug'i yordamida elektr energiyasi ishlab chikarish boshlangan. 1827 yilda Franchesko Larderel (Francesco Larderel) termal suvda ishlovchi tizimni ishlab chiqdi.




1-rasm.

1950 yilda Uayrakee (Yangi Zelandiya) geotermal xududlarida kaynagan suv bug‘idan foydalanishni o‘zlashtirish boshlandi. AQSh da sanoat miqyosida elektr energiya ishlab chikarish geotermal elektrstansiyasida (GeoES) «Dolina Bolshix geyzerov»(Kaliforniya shtati) boshlandi. 1960 yilda birinchi energoblok, 1977 yil oxirida 15 ta shunaka energoblok ishlay boshladи.

Ko‘p isitilgan suvda ishlaydigan katta geotermal elektr stansiyasi 1973 yildan Meksikaning shimoliy-garbiy kismi – Serro-Prietoja ishlay boshladи. Unchalik katta bo‘lмаган GeoIES Meksikaning Pate xududida, Italiya, Yaponiya, SSSR, Yangi Zelandiya, Islandiya va boshka mamlakatlarda foydalanila boshlandи.. 1973 yil may oyida dunyoda jami ishlaydigan GeoIES lar kuvvatlari 800 MVt dan oshmadи, ya’ni bu ko‘rsatkich bitta katta issiklik yoki atom elektr stansiyasi kuvvatidan ham kam edi. Birok, 1975 yilda dunyo buyicha jami GeoIES quvvati 1300MVt ga yetdi(1-jadval). Deyarli barcha bu elektr stansiyalarda tabiiy namsiz (kuruk) bug‘ yoki ko‘p isitilgan suv kaynashidan hosil bo‘ladigan namli bug‘idan foydalanilgan.

Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarda tabiiy bug‘ va issik qaynoq suv konlarini topish ishlari olib borilgan. Iqtisodiy foydali energiya manbalari sifatida manfaatga ega bunday konlar aniqlana boshlandi.



2-rasm. XIX asr birinchi yarmi Larderello (Italiya) termal borli suvni yig‘ib olish kollektori.



3-rasm. Mutnov GeoES – Kamchatka (Rossiya)

Rossiya Federativ Respublikasining Kamchatka hududida joylashgan jami elektrik quvvati 76,5 MVt bo‘lgan GeoIES ning yillik elektr energiya ishlab chiqarish ko‘rsatkichi 420 mln. kVtsoat ni tashkil etadi. Stansiyaning 2011 yildagi quvvati 50 MVt, 80 MVt ga yetkazish rejasini mavjud bo‘lgan.

Yer ichidagi bu harorat kanchaga tengligi anik ma’lum emas, agar otilib chiqayotgan lavalar yoki yashirish holatda Yer ostida turgan termal manbalar, geyzerlar va **fumarollar** misolida oladigan bo‘lsak, ular butun Yer sharidagi insoniyatni zarur energiya bilan ta’minlashga yetarli ekanligiga amin bo‘lamiz. Yana bu energiya, kayta ishslash uchun xech kanday reaktor yoki yokilgi talab kilmaydigan toza energiya manbasidir.

Dunyo mamlakatlari buyicha mavjud bulgan GeoES kuvvatlari to‘g‘risida ma’lumot 1-jadvalda aks etgan.

1-jadval

Mamlakat	Viloyat, shahar, posyolka	Mazkur GeoIES quvvati,	GeoIE S
----------	------------------------------	---------------------------	------------

		MVt		kutilayotgan quvvat, MVt
		1 972 y	1 975 y	
AQSh	Katta Geyzerlar vodiysi	1 92	5 02	718
Italiya	Larderello Travale Monte- Amiata	3 58,6 2 5,5	3 80,8 1 2	
Yangi Zelandiya	Uayrakey Kavervu Brodlends	1 60 1 0	1 92 1 0	150
Meksika	Serro-Prieto Pate	3. 5	7 5 3 ,5	140
Yaponiya	Masukava Otake Onuma Onikobe Xachobaru Takinoue	2 2 1 3	2 0 1 3	50 50
Sobiq SSSR	Paujetka Paratunka	5	5	
Islandiya	Namafyadl Krafpa		2 ,5	55
Turkiya	Qizilder		0 ,5	3
Filippin	Tivi			100
Salvador	Auachapan		3 0	60
Jami		7 92,8	1 306,8	

Geotermal konlari to‘rtta turga bo‘linadi:

- kuruk(namsiz) bug‘ konlari;
- nam bo‘g‘ konlari;


- qaynoq suv konlari;
- qizigan quruq jinslardan iborat konlar.

Namsiz(kuruk) bug‘ konlari misoliga Larderello(Italiya) va Katta Geyzerlar vodiysi (Kaliforniya shtati-AQSh) konlarini keltirish mumkin. Uayrakey va Yangi Zelandiyadagi boshqa konlar o‘ta qizigan suv konlari turiga kiradi.

Geotermal energiya turlari yordamida elektr energiya ishlab chikarishdan tashqari, bu konlardan qo‘srimcha maxsulotlar tabiiy gaz, mineral xom-ashyo va chuchuklashtirilgan suv ham olish mumkin.

Ko‘pgina mutaxassislar geotermal energiya boshka energiya manbalari bilan tan narxi va atrof-muxitga ta’siri jihatidan rakobatdosh bo‘lishi mumkinligi ta’kidlashadi.

Termal suv kuduklaridagi buloqlaridan uy-joy va issikxonalarini kizdirishda foydalanilayotgan xududlar mavjud. Lekin umuman olganda, Yer osti issikligini Yer yuzasidan ancha chukur joylashganligini inobatga olib dunyoda xozirgi vaqtida geotermal energiyadan foydalanish o‘ta chegaralangan.



4-rasm.

### 1.3. Geotermal energiya manbalaridan foydalanishda jahon va O‘zbekiston tajribasi tahlili

Sayyoramizning ko‘plab vulqonli hududlarida issiq suv manbalari mavjud.Bularga Kamchatka, **Kuril**, Yapon va Filippin orollari, Kordiler va And tog‘larining keng hududlari misol bo‘la oladi.

2006 yilda Rossiyada sutkasiga  $300 \text{ ming m}^3$  geotermal issiq suv chiqadigan 56 ta kon qidirib topilgan. Xozirgi kunda shularning 20 tasi sanoat miqyosida ishlamoqda, ularning orasida Paratun (Kamchatka), Kazminsk va Cherkassk


(Qorachoy-Cherkasiya va Stavropol o‘lkasi), Kizlyar va Maxachqala (Dog‘iston), Mostovsk va Voznesensk (Krasnodar o‘lkasi) geotermal suv makonlari mavjud. Geotermal energiyaning asosiy ustunligi manbadan doimiy suv chiqib turishi va atrof – muhit sharoitidan mustaqilligidadir.

Yerosti issiqligidan foydalanishning bir qancha imkoniyatlari mavjud. Suv yoki suv aralashmasini va bug‘ni ularning haroratiga qarab issiq suv ta’minoti va elektr energiyasi ishlab chiqarishga va bir vaqtning o‘zida barcha tizimlarga yuborish mumkin. Vulqon hududlarga yaqin va quruq tog‘ jinslarining yuqori haroratli issiqligini elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish maqsadga

muvofiqdir va qaysi turdagи geotermal energiya manbalaridan stansiyada ishlayotgan qurilmalarga bog‘liq. Agar ushbu hududda yerosti termal suvlar mavjud bo‘lsa, ulardan issiqlik ta’minoti va issiq suv ta’minotida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, G‘arbiy Sibir hududida 3 mln km<sup>2</sup> maydonli

yerosti dengizi mavjud va ushbu dengizda suvning harorati 70-90 °S ga teng.

Yerosti termal suvlarning katta zahiralari Dog‘istonda, Shimoliy Osetiyada, Ingushetiyada, Kavkazortida, Stavropolda, Krasnodar o‘lkasida, Kamchatkada hamda Qozog‘iston hududlarida mavjud. Kra snodar o‘lkasida jami 12 ta geotermal manba makoni ekspluatatsiya qilinmoqda hamda 79 ta quduq burg‘ilanib harorati 75 – 110 °S bo‘lgan issiqlik tashuvchi olinmoqda va issiqlik quvvati 5 MVt gacha yetadi. Quyidagi 5-rasmida Krasnodar o‘lkasida geotermal manba asosida ishlab chiqarilgan yillik issiqlik energiyasi va issiqlik quvvatilari keltirilgan.



5 – rasm. Krasnodar o‘lkasida geotermal manba asosida ishlab chiqarilgan yillik issiqlik energiyasi va issiqlik quvvati

Yer osti suvlaridan foydalanishning asosiy muammolaridan biri bu yerosti suvli gorizontga suvning davriy tushirilishi hisoblanadi. Termal suvlar tarkibida ko‘p miqdorda turli zaharli tuzlar (masalan, bor, qo‘rg‘oshin, rux, kadmiy,

marginush) va kimyoviy birikmalar (ammiak, fenol) mavjudligi tufayli suvlarni yuzada joylashgan tabiiy suv tizimlariga chiqarib tashlash taqilanganadi. Rossiyada eng katta qiziqish elektr energiya ishlab chiqarish va issiqlik ta'minoti tizimida qo'llanilishi mumkin bo'lgan yuqori haroratli termal suvlar yoki chiqayotgan bug'ga qaratilgan.

Jahonda geotermal elektrostansiyalarning potensial umumiy ishchi quvvati boshqa qayta tiklanuvchi manbalar asosida ishlayotgan aksariyat stansiyalarning ishchi quvvatidan pastroq hisoblanadi. Ammo ushbu yo'naliш ayrim aholi joylashgan geografik hududlarda yuqori energetik zichlik va hukumat dasturlari tufayli rivoj topdi. Chunki o'sha yerlarda yoqilg'i manbalari umuman bo'limgan yoki boshqa tabiiy yoqilg'ilarga nisbatan qimmat bo'lgan. Geotermal elektrostansiyalarning o'rnatilgan quvvati 1990 – yil boshlarida 5000 MVt, 2000 yil boshlarida – 6000 MVt ga yaqin bo'lgan, shuningdek 2008 – yil oxirida jahonda geotermal elektrostansiyalarning umumiy quvvati 10,5 ming MVt gacha o'sdi.2 – jadvalda geotermal energiya manbalaridan foydalangan holda yetakchi mamlakatlarning elektr energiya ishlab chiqarish ulushi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

2-jadval


Mamlakatlar bo'yicha o'rnatilgan quvvat			
Mamlakat nomi	Quvvati, MVt 2007 yil	Quvvati, MVt 2010 yil	Umumiy elektr energiya ishlab chiqarish ulushi 2010 yil
AQSh	2687	3086	0,3 %
Filippin	1969,7	1904	27 %
Indoneziya	992	1197	3,7 %
Meksika	953	958	3 %
Italiya	810,5	843	
Yangi Zelandiya	471,6	628	10 %
Islandiya	421,2	575	30 %
Yaponiya	535,2	536	0,1 %
Salvador	204,2	204	14 %
Keniya	128,8	167	11,2 %
Kosta-Rika	162,5	166	14 %
Nikaragua	87,4	88	10 %
Rossiya	79	82	
Turkiya	38	82	
Papua-Novaya	56	56	

Gvineya			
Gvatemala	53	52	
Portugaliya	23	29	
Xitoy	27,8	24	
Fransiya	14,7	16	
Efiopiya	7,3	7,3	
Germaniya	8,4	6,6	
Avstriya	1,1	1,4	
Avstraliya	0,2	1,1	
Tailand	0,3	0,3	
Jami	9731,9	10709,7	

Geotermal energiya manbalaridan foydalanish AQSh da tez suratlarda rivojlanib kelmoqda, lekin uning ulushi boshqa muqobil energiya manbalariga nisbatan past darajada va u umumiy energiya ulushidan 4,55 % ni tashkil etadi.

Geotermal manba asosida elektr energiya ishlab chiqarish 2005 yilda 16 mlrd. kVt·soatni tashkil etgan. 2009 yilda 77 ta geotermal elektrostansiylarining jami quvvati 3086 MVtni tashkil qilgan. Hozirgi vaqtgacha AQSh hukumati mavjud quvvatni 4400 MV ga yetkazishni rejalashtirmoqda.

AQShdagi eng mashhur va ko‘p quvvatli geotermal elektrostansiya San-Fransisko shahrining shimolida joylashgan bo‘lib uning nomi “Geyzers” (“Geysers”) bo‘lib, u 22 ta geotermal elektrostansiyanı o‘z ichiga oladi va umumiy o‘rnatilgan quvvati 1517 MVtni tashkil etadi. Bundan tashqari 570 MVt quvvatli markaziy Kaliforniyada hamda 235 MVt quvvatli Nevadada joylashgan geotermal elektrostansiylar mamlakat energiya ta’minotida o‘z o‘rinlariga ega. AQSh bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlari bilan geotermal energetikani rivojlantirish buyicha aloqalar o‘rnatmoqda.



6 – rasm. AQSh ning energiya ta'minotida muqobil energiya manbalarining ulushi (2009 yil monitoring ko'rsatgichlari)

Geotermal energiya manbalaridan samarali foydalanish bo'yicha AQShdan so'ng Filippin davlati turadi. 2003 yilga kelib Filippin orollarida geotermal elektrostansiya quvvati 1930 MVtni tashkil qildi. Bugungi kunda davlat elektroenergiyasining 27 % ni bug'gidrotermalari tashkil qilmoqda.

Meksika davlati 2003 yilda dunyoda geotermal energiya ishlab chiqarish bo'yicha uchinchi o'rinni egallagan edi. Davlatda o'rnatilgan elektrostansiyalarning quvvati 935 MVtni tashkil qildi. Serro Prieto geotermal zonasida umumiy quvvati 750 MVtni tashkil qilgan stansiya joylashgan.

Geotermal energiya birinchi bor rivoj topgan davlat – Italiyada geotermal energoqurilmalarining umumiy quvvati 790 MVtga yetdi va hamon rivojlanishda davom etmoqda.


Katta geyzerlar yurti hisoblangan Islandiyada hozirgi vaqtga kelib 570 MVt quvvatga ega 5 ta teplofifikatsion geotermal elektr stansiyalari ishlab turibdi, hamda mamlakat umumiy elektroenergiyasining 25% tashkil etmoqda. 5 ta stansiyalardan biri poytaxt shahar Reyk'yavikni elektr va issiqlik energiyasi bilan ta'minlaydi.

Ortiqcha suvni juda katta hovuzlarga qo'yib yuborishadi.

Afrika qit'asining Keniya davlatida umumiy quvvati 160 MVt bo'lган 3 ta geotermal elektrostansiya faoliyat yuritmoqda. Kelgusi yillarda mavjud quvvatni 576 MVt gacha yetkazish rejalashtirilgan.

Rossiya Fanlar akademiyasi tasarrufidagi Vulqonshunoslik institutining tadqiqotlariga ko'ra, Kamchatkada geotermal resurslarning quvvati 500 MVtni tashkil etadi va bugungi kunga qadar Rossiyada 80 MVt quvvatli qurilmalar ishlamoqda, yilliq elektr energiya ishlab chiqarish esa 450 mln. kVt·soatga yetgan.

Keyingi yillarda Rossiya geotermal qurilmalarning quvvatini 100 MVt gacha ko‘tarishni rejalashtirmoqda.



7-rasm. Dunyo miqyosida hududlar bo‘yicha geotermal resurslar potensiali

Geotermal energiya manbalaridan foydalanish bo‘yicha eng kelajagi bor hudud Osiyo hisoblanadi. Xususan Osiyoning Indoneziya davlati 27000 MVt quvvatli potensialga ega. Yuqoridagi 7-rasmida dunyo miqyosida hududlar bo‘yicha geotermal energiya manbalarining potensiali keltirilgan.

#### 1.4. Geotermal energiyaning avzalliklari va kamchiliklari

Geotermal energetika va geotermal elektr stansiyalar shu jumladan, mukobil energiya manbalaridan elektr energiya ishlab chiqarish yoki issiklik energiya sifatida foydalanish energetikaning eng istiqbolli turlaridan hisoblanadi. Shunday bo‘lsada, geotermal energiyadan foydalanishda uni afzallik va kamchiliklarini to‘liq xisobga olishga tug‘ri keladi.

Geotermal energiyaning asosiy afzalliklari:

- geotermal suv yoki suv va bug‘ aralashmasi (haroratga muvofik) ko‘rinishida issik suv ta’motida, isitish tizimida, xamda elektr energiyasi ishlab chikarish uchun yoki bir vaqtning o‘zida ikkala maqsadlarda ham foydalanish imkoniyati mavjudligi;

- atrof-muxit uchun deyarli to‘liq xavfsiz ekanligi. Yuqori haroratli geotermal manbalardan 1 kVt elektr energiya ishlab chiqarish uchun ajraladigan karbonat angidrid-SO<sub>2</sub>, miqdori 13 grammdan 380 grammgacha (masalan,

ko‘mirda ishlovchi elektr stansiyasidan 1 kVt-soat energiya ishlab chikarilganda 1042 g - SO<sub>2</sub> ajralar edi);

- elektr energiya olishdagi iqtisodiy samaradorlik an’anaviy va boshqa noan’anaviy qayta tiklanuvchi energiya turlariga nisbatan bir necha barobar oshadi;

- bitmas-tuganmas manbaligi;

- ishlashini yil va kun vaqtlariga, atrof muhit sharoitlariga tuliq bog‘lik emasligi;

- foydalanish koeffitsienti 90% oshadi;

Shunga qaramasdan geotermal energiyadan foydalanish (ekologik toza qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bilan bir qatorda) kuyidagi kechiktirib bo‘lmaydigan muammolarni yechishda katta hissa qo‘shishi mumkin;

- aholini muntazam elektr energiyasi va issiklik bilan ta’minalash uchun sayyoramizdagi markazlashtirilgan tartibda energiya ta’minati bo‘lмаган yoki haddan tashqari qimmatga tushadigan hududlarida foydalanish (misol uchun,

Rossiyani Kamchatka, Uzok Shimol rayonlari va shunga o‘xhash joylar);

- elektr energiyasi yetishmovchiligi sababli energiya tizimlarida avariya va quvvat cheklovi kabi holatlarni oldini olish uchun markazlashgan elektr energiya ta’minati nomuntazam bo‘lgan zonalarda aholini kafolatli minimal elektr energiya bilan ta’minalashga;

- murakkab ekologik holatda bo‘lgan alohidagi xududlarda energiya qurilmalaridan chiquvchi zararli chiqindilarni kamaytirish;

Yuqorida ko‘rsatilgan afzalliklar geotermal energetikani, uni ancha kichik vaqtlik tarixiga qaramasdan (1904 yil Larderelloda birinchi GeoTES) dunyoda xozirgi kunda rivojlanishga egaligini ko‘rsatadi;

Geotermal energiyani asosiy kamchiliklari:

- ishlatilgan suvni yer osti suvli gorizontga qayta yuborish zaruriyati borligi;

- aksariyat konlardagi termal suvlarni yuqori darajada minerallashganligi, suvda zaharli birikmalar va metallar mavjudligi sababli aksariyat holatlarda bu suvlarni Yer yuzasida joylashgan tabiiy suv tizimlariga chiqarib tashlash mumkin bo‘lmaydi;

- bunday energiya manbalari bo‘lgan xududlarning cheklanganligi;

- issiklik tashuvchi manbani harorat potensialining pastligi;

-bu turdagи stansiyalarni foydalanishdagi sanoat tajribasini kamligi;

Shuningdek, qurilmalarning yuqori narxlarda ekanligi, hamda neft va gaz kuduqlariga nisbatan energiya chiqishini ancha sustligi geotermal energetikani rivjlanishini to‘xtatib turadi. Boshka tomondan, an’anaviy konlarga nisbatan ularni anchagina uzokrok ishlatish mumkin.

Geotermal energiyani yuqorida belgilangan kamchiliklari shunga olib keladiki, geotermal suvlar issiqligidan amalda foydalanish uchun quduqlar

qazishga, hamda korroziyaga chidamli issiqlik texnikasi uskunalarini yaratishni, ishlatilgan geotermal svnvi Yer ostiga qayta yuborish kabi ortiqcha ko‘p kapital harajatlar zarur bo‘lishiga olib keladi.

Birok, quduklarni burg‘ulash texnologiyalarini yangicha, kam harajatli usullarini qo‘llash, svnvi zaharli birikmalar va metallardan tozalashni samarali

usullarini qo‘llash natijasida geotermal suvlarni issiqligini chiqarib olishga sarflanadigan kapital harajatlar uzlusiz pasaymokda. Buni ustiga oxirgi paytlarda geotermal energetika o‘z rivojlanishida sezilarli darajada oldinga siljidi. Shunday bo‘lsada, oxirgi ishlanmalar harorati  $80^{\circ}\text{S}$  past bo‘lgan svv-bug‘ aralashmasidan elektr energiyasi ishlab chikarish imkoniyatini borligini ko‘rsatdi va bu

GeoTESlarni juda keng qo‘llash imkonini yaratadi.

Nam bug‘da ishlovchi geotermal qurilmalar, odatda o‘lchami unchalik katta emas va bu avzallik va kamchiliklarga ega. Bug‘ni uzok masofalarga tejamkor tashib uzatib bo‘lmaganligi uchun tabiiy bug‘da ishlovchi GeoTES larni issiqlik va elektr energiya iste’molchilaridan uzokrokda bevosita konlar yaqinida joylashtirishga to‘g‘ri keladi. Past bosimda bulgan issik svnvi quvurlar orkali bir necha o‘nlab kilometrlarga samarali uzatish mumkin va shunga qaramasdan issik svv tizimlari uchun xam qurilmalarni termal manbalardan uzokrok joylashtirish chekllovleri tegishli buladi.

Quruk geotermal konlardan energiyani olib chikish bir necha sabablarga ko‘ra maksadga muvofik buladi. Kuruk issik katamlar nafakat juda katta, balki keng tarkalgan energiya manbaidir. Agar kuruk katamlardan energiyani chikazib olishni iktisodiy manfaatli usuli ishlab chikilsa, geotermal energiyani olish sistemalarini, issiklik va elektr energiya zarur bulgan barcha joylarda yaratish imkoniyati paydo buladi. Bunaka sistemani kushimcha afzalligi shundaki, termal manbalarni uzatish uchun kuvurlar va boshka sistemalar urnatish xamda elektr energiyasini uzatish uchun yangi simlar tortib chikish singari talablarni kamaytirishga imkon beradi.

Geotermal energetikani xolati va rivojlanish istikbollari

Organik yenilgi narxlarini oshib ketishi kayta tiklanuvchi energiyaga asoslangan (KTE) energetik texnologiyalarini, ayniksa geotermal energetikani rakobatdoshligi keskin oshiradi. Bugungi kunda dune buyicha urganilgan geotermal resurslar potensiali 0,2 TVt(trillion watt) elektr energiyasi va 4,4 TVt issiklik energiyasi kuvvatlarini tashkil kiladi. Bu potensialning taxminan 70% suyklik xarorati  $130^{\circ}\text{C}$  kam bulmagan konlarga tugri keladi.

Taxminlarga kura, bugunga geotermal potensialni 3,5% atrofida elektr energiya ishlab chikarish uchun va fakatgina 0,2% — issiklik olish uchun ishlatilmokda.

Sunggi yillarda geotermal resurslarni ishlatish xajmi oshganligi va foydalanish soxalari kupayganligi kuzatilyapti. Kator mamlakatlarning energetik

balansida geotermal energetik texnologiyalar ustunlikga ega bulayapti va dunyo energetik balansida geotermal energetika salmogi barkaror usib bormokda.

Xaroratiga kura geotermal resurslar elektr energetika va issiklik ta'minotida, sanoatda, kishloq xujaligida, balneologiya (kasalliklarni davolashda) va boshka soxalarda keng foydalanilmokda (1 jadval).

Geotermal resurslardan foydalaniladigan eng yangi energetik texnologiyalar ekologik tozaligi va samaradorligi jixatidan an'angaviy texnologiyalarga yakin keladi. Zamonaviy GeoESlarda kuvvatlardan foydalanish koeffitsienti 90% ga yetadi, bu kursatkich boshka turdag'i KTE (kuesh, shamol, tulkin, x.k.) texnologiyalaridan 3–4 marta yukori. GST (geotermal sirkulsiya tizimlari)-texnologiyalar va binar siklda (BET-binar energetik tizimlar) ishlaydigan GeoESlarda dioksid uglerod-SO<sub>2</sub>, atmosferaga chikarib tashlanishi tulik bartaraf kilinadi, bu esa bunday energetik kurilmalarning eng axamiyatli ekologik ustunligi xisoblanadi.

Quyidagi jadvalda 2007 yil xolatiga dunyo mamlakatlarida ishlab turgan GeoES lar kuvvatlari keltirilgan.

Mamlakatlar	Kuvvat (MVt)
AKSh	2687
Filippin	1969,7
Indoneziya	992
Meksika	953
Italiya	810,5
Yaponiya	535,2
Yangi Zelandiya	471,6
Islandiya	421,2
Salvador	204,2
Kosta-Rika	162,5
Keniya	128,8
Nikaragua	87,4
Rossiya	79
Papua-Novaya Gvineya	56
Gvatemala	53

Oxirgi yillarda issiklik ta'minotida geotermal resurslarni tugridan-tugri ishlatish texnologiyasi tezkor sur'atlarda rivojlanmokda. Oxirgi 15 yil ichida issiklik ta'minotiga ishlatiladigan geotermal tizimlarni yigindi kuvvati 3 martobadan oshikrok oshdi va 28000 MVt yetkazildi.

Geotermal tizimlarni urnatilgan issiklik kuvvati buyicha dunedagi yetakchi mamlakatlar: AKSh — 7817MVt, Shvesiya — 3840MVt, Xitoy — 3687MVt, Islandiya — 1791MVt, Turkiya — 1177 MVt.

GeoES kurish uchun yukori xaroratdagi issiklik tashuvchi mavjud bulgan geotermal resurslar bazasidan farkli ravishda, issiklik ta'minoti uchun kerak bulgan urta va past xaroratli issiklik manbalari dune buyicha juda kup va deyarli duneni xamma joylarida mavjud.

III BOB	<b>GEOTERMAL MANBALARDAN FOYDALANISH ASOSLARI</b>
2.1	<b>Geotermal energiya manbalari asosidagi energetik qurilmalar Geotermal elektr stansiyalar kurilmalari.</b>

Geotermal ES tarkibiga kuyidagi asosiy kurilmalar kiradi:

1.Bug turbinali GeoTES lardagi kurilmalar:

- geotermal bug tayerlovchi uskuna, bugni yuvib turuvchi separatorlar bilan kushilgan kurinishda. Dastlabki issiklik tashuvchi tarkibini va sifatiga muvofik speratsiya(ajratish)bir yeki ikki stupenli bulishi mumkin;
- bug turbinali kurilmalar. Texnik suv ta'minotiga kura bug turbinalari kondensatorlar bilan jixozlanadi:

a) aralashtirgich turdag'i;

b) kojuxtrubali turdag'i;

v) xavo yerdamidasovutgichlik;

- sirkulyatsiyali va texnik suv ta'minoti tizimi uskunalari;

- umum stansiyali uskunalar.

Kam xaroratda kaynovchi ishchi modda(jism)dan foydalanuvchi GeoTES :

- issiklik almashtirgich buglantiruvchi-bugeneratorlar;

- - bug turbinali kurilmalar. Texnik suv ta'minotiga kura bug turbinalari kondensatorlar bilan jixozlanadi:

a) kojuxtrubali turdag'i;

b) xavo yerdamidasovutgichlik;

- - sirkulyatsiyali va texnik suv ta'minoti tizimi uskunalari;

- umum stansiyali uskunalar;

- energiya kurilmasini ishchi modda-jism bilan ta'minlovchi va saklovchi sistema xraneniya.


Binar siklda ishlovchi GeoTES

Binar sikllik GeoTES ikkita konturdan iborat.

- Birinchi kontur bu- karama-karshi bosimlik bug turbinalik GeoTES.
- Ikkinci kontur – past xaroratdagi ishchi jism-modda yerdamida ishlovchi uskunalar kiradi.

Geotermal issiklik stansiyalarini kuyidagi sxemalari mavjud.


1) aralashtirgich turdag'i kondsatorli namsiz bugda ishlovchi GeoTES sxemasi



sxmeda- par-bug, turbina-turbina, smeshivayushiy kondensator – aralashtirgichli kondensator, zakachka v plast- yer osti katlamiga suv yuborish, gradinya- sovutgich, PT- bug turbinasi.

Yer osti kudugidan namsiz bug kattik jismlardan separatororda tozalanib bevosita turbinaga, undan aralashtirgichli kondensatorga beriladi. Sovigan kondensatni bir kismi bugni kondensatsi yakilish uchun ishlataladi, kolgani yer osti katlamiga uzatiladi.


2) Yuza kurinishdagi kondensatorli namsiz bugda ishlovchi GeoTES.



Ejektor - ejektor

Birinchi turdag'i sxemadan farki turbinadan chikkan bug yuzali kurinishdagi kondensatorga uzatiladi, paydo bulgan gazlar ejektor yerdamida vodorod oltingugurtdan tozalanib chikarib yuboriladi.


3) Bir stupenli kengayishdagi bug-suv aralashmasida ishlovchi GeoTES.



rasshiritel- kengashtirgich

Geotermal katlamda suv xam bulganida bu sxema ishlatiladi. Suvli-bugli aralashma separatorga boradi. Bu jaraenda bug suyuklikdan ajraladi va turbinaga yunaladi, suyuk fraksiya kaytib yer osti katlamiga uzatiladi.

4) Ikki stupenli kengayishdagi bug-suv aralashmasida ishlovchi GeoTES.



R2- kushimcha kengaytirgich kuyilgan, bu sxema kiyinchilik yuzaga keltiradi, chunki turbinaga bug kiruvchi ikkita kirish yuli kerak. Lekin, yer osti kudugidan chikarilaetgan bir modda birligi xisobiga olganda 15-20 % elektroenergiyakup ishlab chikarish imkoniyati buladi.


##### 5) Binarli ikki konturli sikllik GeoTES.

Bunda geotermal modda uz issikligini boshka ishchi jism-moddaga uzatishi uchun issiklik almashtirgich.

Ikki konturli siklni afzallikkari:

- eritma issikligi ancha kup ishlatiladi va keyin kayta yer osti katlamiga kam xarorat bilan uzatiladi;
- past xaroratli geotremla manbalardan foydalanish imkoniyati mavjudligi;
- aggressiv kushimchalarni geotermal manbalarga, bugli siklga kushilmasligi, bu uz navbatida (turbina, kondensator, ...) kabi uskunalarni foydalanish muddatini uzaytiridi;

- Atrof-muxitga zararli gazlarni chikib ketish oldi olinadi.



parogenerator – bug generator

Bundan tashkari GeoTES larda issiklik nasoslari kullaniladi.

## 2. Geotermal elektr sansiyalar va quvvatini baholash Issik geotermal eritmalaridan energiya olish usullari

Geotermal energiya manbalari dunyo buyicha kup xududlarda mavjud bulib, ulardagi energiya yer ostida unchalik chukur bulmagan konlarda joylashgan isigan bug, issik eritmalar va issik kuruk katlamlar kurnishida buladi. Issik eritmalar mavjud bulgan AKSh, Kaliforniyadagi Solton-Si kuli yakinidagi issik geotermal eritmalar manbasining energiyasini elektr energiyaga aylantirish usullarini kurib chikamiz.

Shulardan biri tulik okim usuli. Baxolashlarga kura bu usul elektr energiyasi ishlab chikarish buyicha boshkalariga nisbatan iktisodiy rakobatdosh xisoblanadi. Issik eritmasi mavjud bulgan konlar kaliforniya shtatida juda kup va taxminan ulardan 100 ming Mega vatt elektr kuvvati ishlab chikarish mumkin, bu kursatkich AKShdagagi elektr stansiyalar kuvvatini kariyb 30% tashkil kilishi


mumkin. Issik eritmalar energiyasidan foydalanishni xar xil usullari taklif kilingan. Shulardan biri, manbadagi bug-suv aralashmasini markazdan kochuvchi separatorordan utkazish orkali suyuk faza ajratiladi, bug esa elektr energiya ishlab chikarish uchun standart reaktiv bug turbinasiga uzatiladi. Bunaka sxema Uayrakey(Yangi Zelandiya) va Serro-Prieto (Meksika) stansiyalarida kullaniladi.

Bu manbalardagi tuzlar mikdori masalan Solton-Si konidagi eritma konsentratsiyasida taxminan 10/1 ulushni tashkil kiladi. Shuni uchun bu konda bug-suv aralashmani seperator yerdamida ajratish sxemasidan foydalanib bulmaydi.

Issik eritmalaridan foydalanishning ikkinchi usuli-bu ikkilamchi issiklik tashuvchisi bulgan sxemadir. Bunda issik eritma issiklik almashingichda kaynashini oldini olish uchun katta bosim ostida surib olinadi. Eritmani issik energiyasi boshka ishchi suyuklikga beriladi, korroziya chakirmaydigan –misol uchun izobutanga. Keyin bu suyuklik turbina-generator sistemasida Renkin sikli asosida elektr-energiya ishlab chikarish uchun kullaniladi.

Geotermal eritmalarни korroziyaviy xossalariни xisobga olsak, ikkinchi usulda yer osti nasosi va issiklik almashtirgichni yaxshi ishlashini ta'minlash murakkab masala bulgani uchun ushbu usuldan foydalanish deyarli chegaralanadi.

Issik geotermal eritmalar energiyasini olishning uchinchi usulini amalga oshirish uchun 1 kvt eletkr energiyaga nisbatini olganda 200 dollar kapital kuyilmalar kerak buladi. Ishlab chikarilgan 1 kvt elektr energiya kiymati 0,32 sent bular ekan. BU yukorida keltirilgan ikki usuldan xam arzon chikadi. Bu usulda geotermal eritmani yer yuzasiga surib olinadi, xuddi Uayrakey va Serro-Prieto stansiyalaridagi kabi, keyin butun suyuklik okimi uni bosimini kamaytirish va tezligini oshirish uchun soplo orkali utkaziladi. Keyin suyuklik okimini kinetik energiyasini, tipik gidro elektrik kurilmalarga uxshagan, no korrozion aktiv turbinada elektr energiya ishlab chikarish uchun foydalanish mumkin. Xisob-kitoblarga kura, shunaka sxemadan foydalanilganda, markazdan kochuvchi separatorli usuldagagi yeki ikkilamchi issiklik tashuvchi usuldagagi sxemalarga nisbatan 1,6 marta kuprok elektr energiya ishlab chikarish mumkin. Kuyidagi rasmda uch turdagи sxemalar keltirilgan. Fig.6.1.a- separatorli sxema va Fig.6.1.b –ikkilamchi issiklik tashuvchi sxemalarda geotermal eritma sistemadan, turbinadan chikishdagi va chikarib tashlanadigan suvlar xaroratiga nisbatan yukorirok xaroratda chikarib tashaladi. Shuning uchun turbinalarning uchala sxemadagi F.I.K(foydali ish koeffitsienti) solishtirilganda tulik issiklik okimi sxemasida xar doim umumiy F.I.K. yukori buladi.



Ф и г. 6.1. Способы получения энергии из горячих геотермальных растворов [1].

а – схема с сепаратором; б – схема с вторичным теплоносителем; в – схема полного теплового потока. 1 – центробежный сепаратор; 2 – турбогенератор; 3 – теплообменник; 4 – глубинный насос; 5 – актианая радиальная турбина.

Rasmda. Issik geotermal eritmalaridan energiya olish usullarini sxemalari keltirilgan.

A- Separatorli sxema; b- ikkilamchi issiklik tashuvchili sxema; v- tulik issiklik okimi sxemasi. Sxemalarda 1-markazdan kochuvchi separator; 2-turbogenerator; 3-issiklik almashtirgich; 4- chukur nasos; 5-aktiv radial turbina.

2. Rossiya va MDH davlatlaridagi geotermal elektr stansiyalar.  
3

- geotermal manbalar
- geotermal elektr stansiyalar

Xozirgi vaktda yer osti boyliklaridan energiya olish buyicha dune mamlakatlari orasidagi yetakchi bulgan davlatlar - Amerika Kushma Shtatlari, Filippin, Meksika, Indoneziya, Italiya, Yaponiya, Yangi Zelandiya va Islandiya . Rossiya xam bulardan uzokda emas. Rossiyaning Kamchatka yarim orollaridagi Mutnov geotermal elektr stansiyasi – Rossiyada yer osti chukurligidagi issiklikni elektr energiyasiga aylantirish buyicha yakkol misol buladi.

Geotermal energetika – energetikaning eng istikbolli soxasi, ayniksa bu Rossiyaga tegishli. Mutaxassislarning bashoratiga kura, yer osti kobiginining 10 km chukurligida konsentratsiya bulib yigelgan issiklik energiyasi xajmi. dunedagi barcha uglevodorod bulgan neft va tabiiy gaz zaxiralaridan 50 ming marta kupdir.

Geotermal manbalar



Yer sharining vulkonli xududlarida vulkon lavalarini suv resurslari bilan tuknashganida suvni intensiv kizishi sodir buladi va natijada yerning tektonik plitalari singan joylarda, ya’ni bu yerlarda yer kobigini yupkalashgan joylarida issik suv yer yuziga geyzer suvlari tarzida otilib chikadi xamda issik geotermal kullar yeki yer osti okimlarini paydo kiladi. Shunaka tabiiy xodisalar tufayli ularni xossalardan tuganmas energiya manbai -mukobil energiya sifatida foydalanish imkoniyati paydo buladi. Afsuski bunday geotermal manbalar yer yuzasi buylab notejis joylashgan. Shunda bu kunggacha bunday manbalar deyarli 60 ta mamlakat xududlarida topilgan va foydalanilmokda. Bular asosan, Tinch okeani vulkonik xalka xududida, xamda Rossiyani Uzok Shark xududlarida.

Ochik manbalardan tashkari, yer osti energiyasiga kuduklar burgulash orkali, ya’ni xar 36 m chukurlikda xarorat bir darajaga oshadi. Bunaka usul bilan olinadigan issik su veki bug kurinishida bulgan issiklik elektr energiyasi ishlab chikarish, binolarni isitish, xamda ishlab chikarish extiejlari uchun ishlatiladi, ayniksa bu masala Rossiyadagi sovuk kish uchun juda dolzarb sanaladi.

### Geotermal elektr stansiyalar



Yer osti kuduklaridan bug tugri turbinalarga yuborilib bug bilan ishliydigan stansiyalar tugridan-tugri yeki bevosita ishliydigan elektr stansiyalari deyiladi.

Dunedagi eng birinchi va sodda elektr stansiyasi aynan shu ish prinsipida yaratilgan va 1911 yilda Italiyaning Larderello axoli punktida ishga tushirilgan va shu kungacha ishlab turibdi.

Geotermal manbadan olinadigan namsiz kuruk bug asosida shu kungacha ishliydigan dunedagi eng katta elektr stansiyasi AKSh Shimoliy Kaliforniya shtatining Geyzers degan joyida joylashgan.

Eng kup kullaniladigani bilvosita turdag'i geotermal elektr stansiyalari. Ishlash prinsipi yer osti issik suvi katta bosim ostida yer yuzasida joylashtirilgan generator kurilmalariga uzatiladi.

Aralash turdag'i geotermal elektr stansiyalari kuprok ekologik toza xisoblanadi. Bu turdag'i stansiyalarda yer osti suvdan tashkari past xarorta nuktasida kaynovchi suyuklik yeki gaz ishlatilishi ustunlik xisoblanadi. Issik suv issiklik almashingichdan utkazilganda u joylashgan idishdagi suyuklik bug xolatiga keltiriladi va bug turbinani xarakatga keltiradi.

Bundan tashkari, bunday elektr stansiyalar yer osti suvini anchagina past xaroratlarida  $100\text{--}190^{\circ}\text{S}$  ishlay oladi. Yakin kelajakda bunaka turdag'i stansiyalar eng kup talab kilinadigan buladi, chunki Rossiya xududlaridagi kupgina geotermal manbalar suvi xarortati  $190^{\circ}\text{S}$  ancha past.

Paujet GeoEC



Rossiyada birinchi bulib 1966 yilda kurilgan Paujet geotermal elektr stansiyasi axoli turar joylari va balikni kayta ishlash korxonalarini elektr energiyasi bilan ta'minlash maksadida kurilgan. Bus stansiya Kamchatkani garbiy kirkok buyidagi Paujet kishlogida Kambalniy vulkani yonida kurilgan.

1966 yil elektr stansiyani ishga tushirilgan paytida urnatilgan kuvvat 5 MVt, 2011 yilda – 12 MVt. Xozirgi vaktda Rossiyada ishlab chikarilgan texnologiya buyicha binar energiya blogi ishga tushirilmokda. Bu loyixa ishga tushirilishi natijasida nafakat elektr stansiya kuvvati 17 MVt gacha yetkiziladi, balki ishlatilgan aralashmani tuprokka tashlash bilan boglik ekologik muammolar yechiladi.

Verxne-Mutnov sanoat-tajriba GeoES



Bu elektr stansiya Kamchatka yarim orolining garbiy-sharkida dengiz satxidan 780 metr balandlikda Mutnov vulkoni kiyaligida joylashgan. Stansiya 1999 yilda foydalanishga topshirilgan. U, xar birini kuvvati 4MVt dan bulgan uchta energiya blogidan iborat, ya'ni loyixa kuvvati 12 MVt tashkil etadi.

#### Mutnov GeoES

Geotermal manbalardan foydalanuvchi bu elektr stansiya Mutnov vulkoni yakinida Kamchatkaning janubiy sharkidajoylashgan. Ishga tushirilgan vakti 2003 yil aprel. Belgilangan kuvvat – 50 MVt, rejalashtirilgani - 80 MVt. Bu stansiyada xizmat kursatish tulik avtomatlashtirilgan,

Kamchatkada geotermal elektr stansiyalardan foydalanish bu regionga kimmatabxo yekilgilar tashib kelishdan xalos etdi. Xozirgi vaktga taxminan 30% energiya sarflanishi elektr energiya ishlab chikariladigan shu manbalar xisobiga koplanayapti.

#### Okeanskaya GeoES



Kuril orollari tizmasidagi Iturup orolidan «Okeanskaya» geotermal elektr stansiyasi 1993 yilda kurilishi boshlangan va 2006 yilda ishga tushirilgan, kuvvati 2,5 MVt.

#### Mendeléev GeoTES

Bu geotermal elektr stansiya Mendeleev vulkoni yakinida Kunashir orolida joylashgan. Stansiya kuvvati — 3,6 MVt. 2011 yilda stansiya modernizatsiya kilinib, kuvvati 7,4 MVt ga yetkazilgan. Mazkur stansiya Yujno-Kurilsk shaxrini issiklik va elektr energiya bilan ta'minlashga muljallangan.

Kuril orollarini mavjud resurslari, 230 MVt elektr energiya ishlab chikarish imkonini beradi, bu esa shu regionni issiklik, issik suv va eng asosiysi elektr energiya bilan ta'minlash uchun yetarli buladi.

Bundan tashkari geotermal manbalardagi termal suvlarni xarorati 200°С gacha bulgani uchun binar siklda ishlaydigan stansiyalar kurish samara beradi. Shunaka Geo ES Kamchatkada kurilgan.



Bu stansiya boshka GeoES bir necha marta kuvvatlirok buladi. Rossiyani Kamchatka va Saxalinida issik tabiiy manbalar kup va ularda binar kurilmalardan foydalanish yaxshirok buladi.

Aksariyat shu rayonlarda termal suvlar xarorat  $200^{\circ}\text{S}$  gacha shuni uchun binar sikldagi geotermal elektr stansiyalarda issik suv teploobmennik-issiklik almashtirgich orkali utkaziladi va atrofidagi suyuklik buglantirilib, turbinani xarakatga keltiradi. Bunaka yepik sistemalarda atmosferaga chikindilar deyarli yuk.

Olimlar fikriga kura yakin kelajakda Rossiyada kuvvati 15000 MVt ga yetadigan geotermal stansiyalar kuriladi. Misol uchun Kamchatkadagi Mutnov geotermal elektr stansiya kuvvati 50 MVt.

#### GeoES Atrof muxitga ta'siri

Zamonaviy geotermal elektr stansiyalarni atrof-muxitga chikindilar darajasi juda past. 1 megavatt-soat elektr energiyasiga urtacha 122 kg CO<sub>2</sub>, yekilgi manbalarida ishlab chikarilgan elektr-energiyasidan chikindisidan anchagina kam.

#### Geotermal manba – termal suv manbai

Xozirgi vaktda yuzaga kelgan bunday vaziyatni uzgartirish uchun texnik asoslar va goyalar mavjud. Bir necha yillardan keyin moliyaviy jixatdan, atrof-muxit ekologiyasi jixatidan geotermal energiya inoniyat manfaati uchun keng kulamda foydalaniladigan manba bulishi extimoldan xoli emas. Shunda azaldan ma'lum bulgan bu energiya turi dunedagi ikkita asosiy muammoni yechishga:

tabiiy yekilgi zaxiralarini tugashini va atrof-muxitni nazorat kilib bulmaydigan darajada oldini olishga ancha ta'sir kiladi.

Tabiiy bugni yeki kaynatiladigan yer osti suvini bevosita elektr-energiya ishlab chikarishi uchun ishlatishdan oldin uni separatordan utkazish orkali kattik zarralardan tozalanib sungra bug turbinalariga uzatiladi. Bunaka issiklik turini kiymati unchalik katta emas va kuduk kapital xarajatlaridan va bugni yigib olish sarf xarajatlaridan iborat. Bunday stansiyalarda kozonxona va tutun chikuvchi truba-murilar yukligi uchun GeoES kiymati xam kimmat bulmaydi.

Lekin yetarli bug mikdori va issiklik xaroratiga ega bulgan tayer geotermal manbalar yerda kamdan-kam uchraydi.


Xarorati suv kaynash xaroratidan kam bulgan yer osti termal suv basseynlari mavjud. Shunaka yer osti basseynlari kup mikdordagi termal manbalarni tashkil kiladi. Ming yilliklardan buen bu manbalardan insoniyat davolanish, tana kuchini tiklash, diniy marosimlarni utkazish va maishiy maksadlarda foydalanilgan. Xozirgi vaktda termal suvlardan iktisodiy jixatdan samarali bulib, uy-joylar, issikxonalar, sanatoriya-kurort joylarini isitishda, fabrika va zavodlarda, xattoki shaxarlarni isitishda foydalaniladi. Umuman olganda, termal suvlarni past potensialli issiklik energiyasi sifatida karash mumkin. Ulardan foydalanish natijasida yukori potensialli issiklik energiyalarini tejashga va boshka zarur extiejlarga ishlatishga saklash va atrof-muxitni ifloslanishini oldini olishga imkon yaratadi.

Xarorati suv kaynash xaroratidan yukori bulgan va tugridan tugri issiklik elektr stansiyalarida bug sifatida foydalaniladigan issik suv manbalari kamdan-kam uchraydi. Kup mikdordagi bunday manbalar dunening bir necha xududlarida, xususan AKSh-Kaliforniya shtatining Impirial-Villi vodiysida mavjud. Lekin, bunday manbalar issikliklari asosan binolarni istishda foydalaniladi. Bunaka katta geotermal manbalar issikligidan foydalanish texnikasi va kurilmalari rivojlanib bormokda. Eritmalarni chuchuklashtirib, past xaroratda kaynash darajasiga ega bulgan organik suyukliklar bilan elektr-energiyasi ishlab chikaradigan turbinalar yerdamida ishlaydigan tajribaviy kurilmalar mavjud. Kuvvati 10 Mvt bulgan shunaka tajribaviy kurilma AKSh Impirial-Villida 1976 yilda ishga tushirilgan.

Xozircha, afsuski, yer osti kobigini katta kismini tashkil etuvchi kizigan kuruk yer osti katlamlaridagi energiyani tortib oladigan xattoki tajribaviy kurilmalar xam mavjud emas. Bu katlamlarga yer osti suvlarini yetib borolmasligi va utish imokniyati yukligi sababli ular yetarli bug mikdori yeki issik suvni bera olmaydilar. Birok, bunday energiya zaxiralari shunchalik kupki va kup xollarda katta xaroratga egaki, ular dikkatga sazovordirlar. Xususan, xos bulgan tajribaviy tizim kurilma AKShning Los-Alamosida yaratilgan. Bunda katta gidravlik uzaro boglik tizim kilingan va uning uchun ikkita chukurligi 3 km kuduk kazilgan, u katlamdagi xarorat 200-250 S tashkil kiladi. Bitta kudukdan katta bosim ostida

suv uzatiladi. Ikkinchi kudukdan, katlamni ulchamlarini, shaklini va yeriklar tarkibini joylashishiga karab, issik suv chikarizib olinadi. Bunday sistema (tizim) uzok vakt 100 MVt kuvvatli elektrstansiyasi ishlashi uchun xizmat kilishi mumkin.


2. Geotermal energiyadan foydalanib uylarni isitish  
4



- 1 – suv haydash qudug‘i;  
 2 – yer usti nasos qurilmasi;  
 3 – suvni gazlardan tozalash va tayyorlash tizimi;  
 4 – issiklik almashinuvi qurilmalari;  
 5 – qo‘sishma isitish qozonxonasi;  
 6 – tarmoq nasosi;  
 7 – magistral issiqlik trassalari;  
 8 – aholi yashash massivi;  
 9 – sanoat ob’ektlari;  
 10 – parnik-teplitsa kombinati;  
 11 – baliq xo‘jaligi;  
 12 – sport-sog‘lomlashtirish markazi;  
 13 – issiqlik nasoslari;  
 14 – chuqurga tushirilgan nasoslар (pogrujnye nasosы);  
 15 – suv olish kudugi (vodopod’emnaya);  
 16 – quduq filtrlari tizimi.

I Geotermal energyaning mavjud ko‘rinishlari va olish usullari  
 II bob  
 3 Petrotermal energiya konlari  
 .1

## PETROTERMAL ENERGETIKA



Tugab boraetgan neft va gaz konlarini urniga energiya manblarining yana bir turi –yer ostidagi tog jinsli katlamlarining issiklik energiyasi kelishi mumkin.

Insonlar bu energiyani 1960-yillarda kazib olishni uranishdi, lekin tajribaviy petrotermal stansiyalardan nariga utisha olmadilar. Buni rivojlanishiga nafakat

loyixalarni kimmatligi va texnologik kiyinchiligi, balki jamiyat fikri xam axamiyatli buldi. Shunday amaliyedan bir misol. 2005 yilda Shveysariyadagi Bazel shaxri atrofida issik yer osti granitlaridan energiya kazib olish uchun kuduk burgulashni boshlashdi. Bu texnologiya 5 km chukurlikdagi tog jinslarini maydalashni talab kilardi. Kuduk ichiga katta bosim ostida suyuklik yuborildi va u

yer osti granit katlamini yorib unga suv yuradigan kilib kuyildi. Bu usul

gidrorazrlyv(suv bilan yorish) usuli bulib undan neft konlarini kazishda foydalilanadi. Olti kun davomida katta bosimda yer ostida suv xaydash ishlari utkazilganligi okibatida magnitudasi 3 balldan oshik yer silkinishi sodir buldi.

Maxalliy axolini noroziligi tufayli loyixa tuxtatildi. Shunga uxshash xolat, geotermal elektr stansiyalari ishlab turgan Germaniyani Landau va Unterxaxing joylarida yuzaga kelgan. 2009 yilda u yerda xam yer silkinishi sodir buldi. Axoli noroziligiga karamsdan u loyixa xali xam ishlayapti.

